

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

• "O'zbekiston — 2030" strategiyasi

O'tgan yilning 11-sentabrida qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ta'lim sohasini chuqur isloh qilish bosh maqsad sifatida belgilangandi.

Maktabdan boshlanayotgan Yangi O'zbekiston



Mazkur hujjatda mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ta'limni modernizatsiya qilish, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish qat'iy belgilandi. Xo'sh, nima uchun bu sohaga ana shunday diqqat-e'tibor bilan qaralmoqda, degan savol paydo bo'ladi. Avvalo, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlarsiz taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Zero, Prezidentimiz: "Farzandlarimiz qanchalik bilimli bo'lsa, iqtisodiyotning yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlari qanchalik tez rivojlanisa, ijtimoiy muammolar shunchalik ko'p hal bo'ladi", deya ta'kidlaganida ham chuqur ma'no va mazmun mujassam. Strategiyada ham mutaxassislarining kasbiy, ma'naviy salohiyatini shakllantirishga katta o'rin ajratilgan. Negaki, ma'naviy salohiyat milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, avlodlarimiz yaratgan sharqona ta'lim tizimi tarixini o'rganish jarayonida shakllanadi.

Shu talabdan kelib chiqib, "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirishga kirishildi. O'quvchilarni toza ichimlik suvi, zamonaviy binoga ega bo'lgan maktablarga jalb etish, ular uchun barcha qulayliklarni yaratish ko'zda tutilgan. Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 700 ga yaqin darslik, ish daftarlari, o'qituvchilar uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalar, mobil ilovalar yaratish maqsadida planshetlar yordamidan foydalanish maqsadida mingta multimedia dasturlarini yaratish rejalashtirilgan. Umumiy o'rta ta'limni yanada rivojlantirish maqsadida xususiy sektorni jalb qilgan holda kelgusi 5 yil mobaynida bu tizimdagi nodavlat-notijorat tashkilotlar soni mingtaga yetkaziladi, ularning faoliyati yanada kengaytiriladi. Buning uchun 1 trillion so'm imtiyozli kredit ajratish ko'zda tutilgan. 2024-yildan boshlab, har yili davlat-xususiy sheriklik asosida kamida 100 ta o'rta ta'lim maskanini qurish uchun imkoniyat yaratiladi.

Nodavlat o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni 3 hissaga oshiriladi. Strategiyadagi ko'zda tutilgan asosiy maqsad — yangi avlodni tarbiyalashdan kelib chiqqan holda ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlariga zarur tuzatishlar kiritish, yangilangan dasturlar asosida darsliklar yaratilishi kerak. Alohida nazorat ostida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishga kirishish zarur. Yuqori malakali pedagog-kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish jarayoni yanada takomillashtiriladi. Kadrlar tayyorlash sifati, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash bugungi kunda faoliyat yuritayotgan pedagog-kadrlarning bilimi, saviyasi, malakasiga ham bog'liq. Shunday ekan, bu sohada ham islohot talablari darajasida faoliyatimizni yo'lga qo'yishimiz talab etiladi.

Dilbar O'RINBOYEVA,
viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi professori



Jurnalistlar harbiylar huzurida

Shahrimizda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Xalq va armiya — bir tanu bir jon" mavzuida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, viloyat hokimligi va Markaziy harbiy okrug hamkorligida tashkil etilgan tadbirda Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlari

ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalist va bloggerlar ishtirok etishdi.

— Asosiy maqsad ayni kunlarda yurtimizda "Yangi O'zbekiston armiyasi — mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsoli" shiori ostida o'tkazilayotgan vatanparvarlik oyligi tadbirlarini yoritishda hamkasblarimiz mas'uliyatini, tajriba va malakasini oshirish, shuningdek, harbiylar hayoti bilan tanishishdir, — deydi O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini

bajaruvchi Xolmurod Salimov. — Tadbirga uch viloyatdan ham asosan yosh jurnalistlar, bloggerlarni taklif qilganmiz. Ular bugun birlari bilan tajriba almashmoqda, harbiylar hayoti va mashg'ulotlarini kuzatmoqda.

Dastlab ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazida bo'lib, bu yerdagi mashg'ulotlar jarayonlari, harbiy xizmatchilar hayoti bilan yaqindan tanishishdi. Shundan so'ng Markaziy harbiy okrug

madaniyat va ma'rifat markazida ijodkorlar va harbiylar uchrashuvi o'tkazildi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbir doirasida Zarafshon vohasi jurnalistlari milliy matbuotimiz asoschilaridan biri, ulug' ma'rifatparvar — Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyida ham bo'lishdi.

Tadbir qatnashchilari Samarqand xalqaro turizm markazi va boshqa diqqatga sazavor maskanlarda ham bo'ldilar.

A. ISROILOV

• Siyosiy sharh

USHALMAGAN ORZULAR

Alloh kimni jazolamoqchi bo'lsa, aql-hushidan mosuvo qiladi. Butun boshli xalqni jazolaganida esa, aqli kishilaridan judo qilar ekan.

Rus yozuvchisi, publitsisti, telejurnalisti va siyosiy arbobi Zaxar Prilepinning yaqinda televideniye orqali chiqish qilib, O'zbekiston xususida bildirgan fikrlari turli xil mulohazalarga sabab bo'lmoqda.

Uning aytgan tumtaroq gaplariga munosabat bildirishdan avval gazetxonlarni Prilepin bilan yaqinroq tanishtirish joiz.

Zaxar Prilepin 1975-yilda Ryazan oblastining Il'inka qishlog'ida tug'ilgan. Otasi maktab o'qituvchisi, onasi esa tibbiyot hamshirasi bo'lgan. Keyinchalik avtobiografik asarida o'zini aslzoda sulolalardan bo'lganini iddao qilsa-da, keyingi harakatlari uning zoti oddiy savodsiz krepostnoy dehqonlardan yetishib chiqqan tabaqadan ekanligini ko'rsatib qo'ydi.

1986-yilda ularning oilasi Nijegorod oblastining Dzerjinsk shahriga ko'chib o'tadi. 1990-yilda Zaxar Nijegorod davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kiradi. 1994-yilda harbiy xizmatga chaqirilib, yarim yildan so'ng o'qishini ichki ishlar vazirligi qoshidagi yuridik institutda davom ettiradi. 90-yillar o'rtasida Rossiya milliy gvardiyasiga ishga o'tib, OMON saflarida xizmat qila boshlaydi. 1996-yilda safdoshlari bilan birga Checheniston urushiga safarbar etiladi. Urushda qon hidini olgan sobiq filolog 1999-yilda o'qishini bitirib, ikkinchi Chechen urushiga o'z ixtiyori bilan qatnashadi va o'lmay omon chiqadi. Uning uchinchi urushi Ukrainada davom etadi.

2014-yilda mojaro hududiga harbiy muxbir sifatida kirib, "Komsomolskaya pravda"

gazetasida urush harakatlari haqida turkum maqolalar chop ettiradi. Shundan so'ng Kreml uni Donetsk va Lugansk xalq respublikalari, deb atalmish "davlatlarcha"larning rahbarlariga maslahatchi vazifasida sinab ko'radi.

2015-yil dekabrda rasmiy ravishda DXR rahbari Dmitriy Zaxarchenkoga bosh maslahatchi etib tayinlanadi.

2016-2018-yillarda DXR armiyasining shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'limini boshqaradi va mayor harbiy unvoniga ega bo'ladi.

Bu haqda u keyinchalik quyidagilarni yozgandi: "Men to'g'ri yo'l tutganimni bilaman. Albatta, vijdonim bezovta qiladi. Bularni men qandoq unutaman. Nema bo'lganda ham, men odamlarni o'ldirgan, juda ko'p o'ldirgan bo'linmalarni boshqardim. Buni men juda yaxshi bilaman, bu og'ir mavzuni hazm qilish qiyin. Halok bo'lganlar bekordan-bekorga o'lib ketishdi. Ular juda ko'p edi. Donetsk harbiy batalyonlaridan birortasi shafqatsizlikda mening batalyonim bo'linmalari bilan tenglasholmas edi. Biz nima ish qilgan bo'lsak, barisi borib turgan o'zboshimchalik edi".

Zaxarchenko fojiali halok bo'lganidan so'ng Prilepin o'z yurtiga qaytib rus siyosiy hayotida faol ishtirok eta boshladi.

2018-yil 4-dekabrda M. Gorkiy nomidagi Moskva badiiy akademik teatriga badiiy rahbar o'rinbosari vazifasiga tayinlandi, 2021-yil 22-fevralda Putin siyosatini qo'llab-quvvatlovchi Ummumrossiya xalq fronti tashkil etilgach, Prilepin markaziy shtab a'zosi etib tayinlandi. Shu bilan bir vaqtda "Adolatli Rossiya — haqiqat uchun" (SRZP) partiyasi markaziy kengashining ham a'zosi bo'ldi.

(Davomi 4-sahifada)

AXBOROT XIZMATLARI XABAR QILADI

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan viloyat bojxona boshqarmasi tomonidan soha xodimlarining farzandlari o'rtasida "Mening armiyam — mening faxrim!" mavzusida eng yaxshi tasviriy san'at asari tanlovi o'tkazildi.

Tanlov g'oliblari viloyat bojxona boshqarmasi va Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan 26-yanvar O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari xodimlari kunida tantanali taqdirlanishadi.

Viloyat bojxona boshqarmasi axborot xizmati

Yoshlar yetakchilari (qizlar) o'rtasida sportning stol tennisi bo'yicha "DXX Samarqand viloyati bo'yicha boshqarmasi boshlig'i kubogi" musobaqasi o'tkazildi.

Unda jami 178 nafar xotin-qizlar ishtirok etishdi. Natijalarga ko'ra, "Mehnat" mahallasi yetakchisi Nasiba Istamova 1-o'rin, "Mulyoni poyon" mahallasi yetakchisi Nilufar Murodova 2-o'rin va Samarqand tumani "Mirishkor" mahallasi yetakchisi Sabina Ahmedova 3-o'rinlarni egallashdi.

Musobaqalar joriy yilning 14-yanvariga qadar davom etadi.

Shahar hokimligi axborot xizmati

Viloyat statistika boshqarmasining Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limi hamda shahar statistika bo'limi mutaxassislari tomonidan "So'zangaron" va "Dari zanjir" mahalla fuqarolar yig'inlarida, mahallalarning xaritasiga kiritilgan o'zgarishlarni, raqamlangan va raqamlanmagan xonadonlarni hamda mahallalardagi aholi sonini xarita bilan solishtirish ishlari olib borildi. O'rganishlar natijasiga ko'ra, kelgusida ushbu mahallalarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar belgilab olindi.

Viloyat statistika boshqarmasi

Shahardagi umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlari ishtirokida kengash yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda 2023-yilda erishilgan yutuqlar va mavjud kamchiliklar muhokama qilindi va 2024-yilda tizim mas'ullari oldida turgan muhim masalalar, kechiktirib bo'lmaz vazifalar belgilab olindi. Jumladan, joriy yilda kamida 50 foiz maktab bitiruvchilarining OTMdagi ta'limni davom ettirishlari uchun qamrab olish va bandligini ta'minlash choralarini ko'rish, yanvar-iyun oylarida bo'lib o'tadigan attestatsiya jarayonlariga pedagog va "Mobil guruh" tinglovchilarini jalb etish kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi axborot xizmati

Xalq deputatlari shahar Kengashining QARORI

SAMARQAND SHAHRINING 2024-YILGI MAHALLIY BUDJETINI
TASDIQLASH TO'G'RISIDA

“2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni hamda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrda “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, 2024-yil uchun Samarqand shahar mahalliy budjetini qabul qilish bo'yicha Xalq deputatlari shahar Kengashining navbatdagi oltinchi chaqiriq, yuzinchi sessiyasi QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida”gi qaroriga asosan:

Samarqand shahar budjetiga Samarqand viloyati budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 155 315 353,0 ming so'm, shundan mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig'i bo'yicha transfertlar 99 359 208,0 ming so'm miqdorida tasdiqlanganligi;

shahar budjetining aylanma kassa mablag'i 3 806 000,0 ming

so'm miqdorda belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun shahar budjeti daromadlar prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 5 197 516,0 ming so'm miqdorida belgilansin.

5. Shahar hokimligi (D.Habibullayev): tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarning rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

budjet daromadlari va xarajatlarning ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rish, budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat'iy nazoratni o'rnatishi uchun shahar Kengashiga doimiy ravishda ma'lumot kiritib borsin.

“2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunida belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qaror 2024-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirsin.

7. Ushbu qaror “Samarqand” gazetasida e'lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (M. Sayfiddinova) va shahar hokimining birinchi o'rinbosari (D.Habibullayev) zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Kengash raisi

F.UMAROV

2023-yil, 29-dekabr

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining 2023-yil 29-dekabrda
VI-100-216-7-107-K/23-sonli qaroriga 1-ilova

Samarqand shahar mahalliy budjeti daromadlarining
2024-yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari

ming so'mda

T/R	Daromad turlari	2024-yil
	JAMI	428 515 500,0
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	95 178 400,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	62 684 100,0
3	Aylanmadan olinadigan soliq	65 799 000,0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	17 465 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	39 470 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	89 536 000,0
7	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	14 449 400,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	15 716 200,0
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	15 848 400,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno)	3 030 000,0
11	Qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	1 261 000,0
12	Yig'imlar	8 078 000,0

2024-yil uchun Samarqand shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet
mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy
cheklangan miqdorlari

ming so'mda

№	Ko'rsatkichlar	2024-yil
	Samarqand shahri bo'yicha jami xarajatlar miqdori	583 830 853,0
1	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	61 297 507,0
2	Tibbiyot birlashmasi	238 573 709,0
3	Madaniyat bo'limi	21 998 946,0
4	Yoshlar siyosati va sport bo'limi	35 119 909,0
5	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	16 568 638,0
6	Shahar hokimligi	192 309 342,0
7	Soliq inspeksiyasi	13 594 695,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo'limi	1 906 857,0
9	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	2 461 250,0

FARZAND TARBIYASI
Unda onaning o'rni

Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim.

Abdurauf FITRAT

Jamiyatda har qanday davrda onalar farzand tarbiyasida hamisha muhim o'rin tutganlar.

Bola tug'ilishidan oldinoq bo'lajak ona va tug'ilajak farzand salomatligi va uni barkamol qilib tarbiyalash muhim an'analardan biri sifatida bugungi kunda ham davom etmoqda. Ma'lumki, ilgari ham, hozir ham ota ko'proq ro'zg'or tebratish, uning farovonligini ta'minlash yo'lida har qanday sharoitda yuzdan hamisha bo'lavermaydi. Bugun sog'ayotgan farzandlar ona nazorati, e'tibori ostida ulg'ayadilar. Tabiiyki, ona bilimli, zukko, keng dunyoqarashli bo'lsa, farzand tarbiyasi shunchalik samarali bo'lib, bu oiladan havas qilsa arzigulik farzandlar yetishib chiqadi.

Mamlakatimiz rahbari bu haqda: "Bir haqiqat ayonki, har qanday xalqning ma'naviy darajasini avvalo, shu yurt ayollarining ma'naviy saviyasi belgilaydi", deya ta'kidlaganida chuqur ma'no mujassam. Negaki, kelajagimiz egalari bo'lgan farzandlarimizning tarbiyasida bugun ham onalarimizning o'rni beqiyosdir.

Bola ko'proq oilada ona ta'sirida bo'ladi. Tabiiyki, onaning bola tarbiyasidan xabardorligi, malakasi, tushunchasi bu borada hal qiluvchi rol o'ynaydi. Farzand uchun ilk tarbiya makoni u tug'ilgach, ona bag'ri hisoblanadi. Ona o'zi sezmaganda farzandiga mehr beradi. Ana shu mehr chaqaloq uchun ilk tarbiya vositasi hisoblanadi. Garchi, chaqaloq hali fikrlash, narsalarni farqlash qobiliyatiga ega bo'lmasa ham ona mehrini


his etadi. Ayrim hollarda bugungi kunda ham ishlaydigan onalarda farzand tarbiyasi uchun vaqt ajratish muammosi paydo bo'ladi. Bu borada ba'zi ota-onalarimiz bolalari ulg'ayib, bog'cha yoki maktabga borsa, endi farzandim bog'cha va maktab tarbiyasini oladi, degan tushunchaga boradilar. Oqibatda bola tarbiyasiga e'tiborni susaytirishadi.

Bugun ta'lim maskanlari, jumladan, oilada ham Uchinchi Uyg'onish davri bunyodkorlari ta'lim-tarbiya olishmoqda. Mamlakatimizda ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish yo'lida juda katta amaliy ishlarga qo'l urildi. Ayni paytda xotin-qizlarning ta'lim olishi, bilim va malakasini oshirish, ularni jamiyatning eng faol a'zolari sifatida shakllantirish va kamolotga yetkazish choralari ko'rilmogda. Xususan, ta'lim olish, tadbirkorlikka keng jalb etishda ularga imtiyoz va yengilliklar yaratilmogda. Magistraturada o'qiydigan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt pullarini to'lash tizimi joriy etildi. Talaba qizlarga bir qator imtiyozlar berildi, "Ayollar daftari" joriy etilib, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lganlarga imtiyozli bank kreditlari ajratilmogda.

Shu o'rinda bir mulohaza: ayni paytda ishlaydigan, oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan onalarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish yo'lga qo'yilsa, farzandlari voyaga yetib, davlat va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgan onalarni ham rag'batlantirish choralari o'ylab ko'rilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sanoat ZOHIDOVA,
shahar Kengashi deputati,
tibbiyot fanlari nomzodi

● **Ochiq eshiklar kuni**



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazida samarqanlik yoshlar uchun ochiq eshiklar kuni o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan xalq va armiya birdamligini yanada mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda aholi o'rtasida milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg'ularini yanada oshirish maqsadida o'tkazilayotgan ochiq eshiklar kuni tadbirlariga mahallalardagi uyushmagan yoshlar, maktab o'quvchilari keng jalb etilmogda.

O'tkazilayotgan ochiq eshiklar kuni munosabati bilan 50 nafar o'quvchilarimizni Kichik mutaxassislar tayyorlash markaziga olib keldik, — deydi Nurobod tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbari Nabi Alishayev.

O'quvchilar markazda tashkil qilingan ko'rgazmada qurol-aslahalar, harbiy texnikalar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lishdi. Yoshlar o'rtasida harbiylikka bo'lgan qiziqish yuqori. Bu tadbirlar ularning qiziqishlarini yagona maqsadga aylanishiga xizmat qilmoqda. Harbiy texnika va qurol-aslahalarni o'z qo'li bilan ushlab ko'rgan yigit-qizlarning harbiylarga havasi yanada ortib, Qurolli Kuchlarimiz safida bo'lishga ahd qilishmoqda.

Yoshlar ochiq eshiklar kunida faqatgina harbiy texnika va qurol-aslahalar bilan tanishish bilan cheklanmay, harbiylarning yashash tarzi, ularning madaniy hordiq chiqarishi, o'qish-izlanishi, harbiy mahoratini oshirishlari uchun yaratilgan sharoitlar bilan ham tanishtirilmoqda.

O'z muxbirimiz

• *Tabiat va inson*



Tilda ardoqlanib, amalda oyoqosti qilinayotgan boylik

Olimlarning fikricha, sayyoramizda ilk hayot alomatlar bundan 200 ming yil avval paydo bo'lgan ekan.

Shu davr ichida biz, insonlar, tirik mavjudot ona zaminda yashab, uning boyliklaridan foydalanib kelmoqdamiz. Ona zamin bizdan o'z boyliklarini hech qachon darig' tutmagan. Suv, havo, oziq-ovqat va betakror tabiat go'zalliklaridan hamisha bahramandmiz. Afsuski, o'tgan davr ichida inson bu uyg'unlikka putur yetkazdi. Ifloslangan suv va havo, yo'qolib borayotgan hayvonot va o'simliklar olami insonning ona zamin va tabiatga bo'lgan salbiy munosabatlari natijasidir. Bugun toza ichimlik suviga zorlar, ifloslangan havodan nafas olib, turli bedavo va og'ir kasalliklarga chalinayotganlar son-sanoqsiz.

Yurtimiz tabiati bilan bog'liq muammolar haqida tashvishli xabarlardan ogohmiz. Mamlakatimiz poytaxti — Toshkentning dunyodagi eng havosi ifloslangan shaharlar orasida yuqori pog'onada qayd etilishi, asosiy suv manbai hisoblangan Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari suvining kamayib ketgani, Orol fojiasi, abadiy muzliklar kamayib, qurg'oqchilikning katta hududlarga tarqalayotganligi, yerosti suvlarining pastlashuvi kabi ayanchli holatlar ham bizning zamin va tabiatga bo'lgan mas'uliyatsizlarcha munosabatimiz hosilasidir.

Afsuski, keyingi davrda

tabiat oldidagi vazifamiz va burchimizni esdan chiqarib qo'ydik. Oqibatda, kechagina jannatdek hammamizni o'z bag'riga chorlagan go'zal go'shalar bugun huvullab qoldi. Aksariyat kishilar tabiat muhofazasini bitta men o'ylaganim, chora ko'rganim bilan o'zgartirib bo'lmaydi, degan xayoldadir. Oqibatini esa ko'rib turibmiz. Oddiy misol: yurtimiz zaminining 7 ta hududida yerosti suvlari keskin pasayib ketgan. Buloqlarimizdan chiqqan suv bir paytlar ariqlarni to'ldirib, shovullab oqqan bo'lsa, bugungi kunga kelib, jildirab qoldi.

Yaqinda bir gapni eshitdim, qishloqlarda ham suv chiqmay qo'yganmish. Oqarsuv yo'qligi sababli aksariyat odamlar tomorqalarini qo'lbola artezian quduqlardan chiqarayotgan obi-hayot bilan sug'orishmoqda. Bir qishloqning o'zida 80 ta ana shunday artezian quduqlari yozda kecha-kunduz ishlatilganligi oqibatida quduqlardagi suvlar kamayib ketgan. Hatto, avvalgi yili 30 metr chuqurlikdan suv tortib olingan bo'lsa, o'tgan yili suv 40 metr pastlashib ketibdi. Bu holda bizni ertaga qanday qismat kutayotganligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Shuning uchun tabiat bilan munosabatda bo'lganda juda ehtiyotkorlik bilan ota-bobolarimiz udum va an'analarga sodiq qolgan holda munosabatda bo'lishimiz kerak.

Gulshoda SIROJEVA

• *Bu — kechagi gap emas!*

“Yigit armiyaga borganmi?”

Yaqin-yaqingacha qizi voyaga yetgan ota-onalar
sovchilarga ana shunday savol berishardi.

Haqiqatan ham shunday o'ziga xos norasmiy udum bor edi.

Armiya safida xizmat qilgan yigitlar kuyov tanlovida alohida e'tibor va ustunliklarga ega bo'lardi. Eng avvalo, qizning ota-onasida armiyada xizmat qilgan yigitning salomatligi haqida hech qanday shubhaga o'rin qolmasdi. Negaki, harbiy xizmatga o'sha davrda yigitlarni obdon tekshiruvdan o'tkazib jo'natishardi. Tekshiruv o'smirning 16 yoshidayoq, maktabdagi o'quvchilik paytida tuman, shahar mudofaa bo'limlari tomonidan sinchkovlik bilan o'tkazilardi. O'smirda biron-bir kasallik aniqlansa, to u chaqiriluv yoshiga yetguniga qadar davolanishi nazoratga olinardi. Shu davr ichida bo'lg'usi askar sog'ayib ketmasa, u harbiy

baquvvat, biron kasbning egasi bo'lgan har bir yigit Vataniidan yiroqlarda xizmat qilishga majbur edi. Shuning uchun ayrim ota-onalar o'g'lini qandaydir yo'llar bilan harbiy xizmatdan olib qolishga harakat qilishardi. Shunga qaramasdan qizi ulg'aygan har bir ota-ona sovchilarga yuqoridagi savolni berishardi. Armiyada xizmat qilgan yigitning sog'lomligi, jismonan baquvvatligi ana shu talabda mujassam edi. Xizmat qilganmi, demak, ikkilanmasdan kuyovni tanlayverish mumkin edi.

Bugun-chi? Bir paytlar o'ziga xos udum bo'lgan bunday surishtiruvlar allaqachon unutildi. To'g'ri, xizmat yoshiga yetgan barcha yigitlarni ham harbiylikka chaqirishning imkoniyati yo'q. O'sha zamonlarda harbiy xizmatchilar sonini muttasil oshirib borish maqsad qilingan bo'lsa, bugunga kelib, harbiy sohaga keng ko'lamli texnik-texnologik islohotlarning joriy etilishi natijasida chaqiruv yoshiga yetgan barcha yigitlarni ham harbiy xizmatga yoppasiga jalb etishga ehtiyoj ham susaymoqda. To'g'ri, kmlardir kelgusida harbiy bo'lishni, bir yillik majburiy harbiy xizmat mobaynida o'zini ko'rsatib, kelgusida harbiylikni tanlash, yoki oliy ta'lim maskanlariga o'qishga kirish uchun imtiyozga ega bo'lish maqsadida harbiy xizmatni tanlayotgani ham bor gap. Qolaversa, “karyera” uchun xizmatga o'tlanayotganlar ham yo'q emas. Chunki, shunday sohalar borki, xodimning ma'lumotnomasida harbiy xizmatni o'taganligi qayd etilishi shart. Bu sohaning yana bir jihati oramizda ommaviy tus olmoqda. Oliy ma'lumotli, chaqiriluv yoshidagi aksariyat yigitlar bir oylik safarbarlik rezervi xizmatini o'tashni xohlashadi. Bu ham “karyera” uchun xizmat qilishini yashirmaymiz.

Qisqasi, qiz o'stirib, voyaga yetkazgan ota-onalar sovchilarga yuqoridagi savol bilan yuzlanishni ham unutib qo'yishdi. “Yigit armiyaga borganmi-yo'qmi”, degan savolning o'rmini boshqa savol egalladi: “O'g'lingiz qayerda ishlaydi, u qancha oylik oladi”, “Tadbirkormi”, kabi savollar yuqoridagi yigitga baho beradigan savolning o'rmini bosib ketdi. Aslida, ota-onalarimiz kechagi kunda yigit armiyada xizmat qilganmi, degan savolni bejiz o'rtaga tashlashmagan. Qizning ota-onasi avvalo, ham ma'naviy, ham jismoniy ham ruhiy jihatdan baquvvat bo'lgan yigitni kuyovlikka tanlashgan. Bu esa bo'lg'usi avlodning kelajagi uchun dastlabki hayotiy qadam bo'lgan. Afsus, bugun ana shu an'anadan anchagina ortga chekinib ketdik...

Quvondiq MAJIDIY

• *Mulohaza*

Davlatimiz rahbari qayta-qayta takrorlayotgan bugungi tahlikali zamonda chinakam vatanparvar yoshlarni tarbiya qilish har qachongidan ham muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Xo'sh, vatanparvar – kim? “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “Vatanparvar” so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: “O'z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlarini uchun jonbozlik ko'rsatuvchi”.

VATANNI VATANPARVARLAR HIMOYA QILADI

Berilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, vatanparvar irqi, millati, dinidan qat'i nazar Vatanni sevadi, uni tashqi va ichki dushmanlardan asraydi. Vatanni asrash deganda faqatgina qurol bilan sarhadlarni qo'riqlashni tushunmaslik kerak. Vatan, nafaqat qo'lga qurol olinib, jang maydonida yovga qarshi kurash bilan asraladi, balki siyosat, iqtisod, ilm-fan, adabiyot, tarix, sport kabi boshqa maydonlarda ham himoya qilinadi. Jang maydonida, siyosat maydonida, ilm-fan maydonida yurt manfaatlarini himoya qilish, uni asrash uchun vatanparvarlar kerak bo'ladi, aks holda Vatan himoyasiz qolib ketadi. Misol uchun, Zaxar Prilepin kabi kimsalarning Vatanimiz mustaqilligi va yaxlitligiga qarshi aytgan fikrlariga nisbatan siyosat maydonida zudlik bilan javob qaytarilmaganida, bu holat Prilepin ortida turgan kuchlar uchun zaiflik belgisi sifatida baholanar edi. Bundan tashqari, Afg'onistonni Tolibon hukumati egallaganidan keyin ham bizga nisbatan tahdidiy so'zlar aytilgan edi. Ashraf G'ani hukumati harbiylari O'zbekistonga qochib kelganlaridan so'ng, ular olib qochib kelgan harbiy vertolyotlar Afg'onistonga qaytarilishini dag'dag'a bilan talab qilgan Tolibon ham O'zbekiston hukumatidan munosib javob olgan edi. Albatta, siyosat olamida bunday hamlalar uchrab turadi va ularga zudlik bilan javob qaytarish katta ahamiyatga ega. Bu holatlarni ham siyosat



maydonidagi yurt himoyasi deyish mumkin.

Biroq, ma'rifat va madaniyat sohalarimizda bo'shliqlar yo'q emas. Jamiyatda, ayniqsa yoshlarda vatanparvarlik hissi sustlashib bormoqda. Yurtga muhabbatni, qadriyatlarimizni ulug'lovchi, xalqni o'ziga bo'lgan ishonchini oshiruvchi tarixiy film va seriallar ishlanmayapti. Aksar telekanallar xorijiy film va qaynoma-kelin muammolari haqidagi seriallarni namoyish etishdan nariga o'ta olmayapti. Ijtimoiy tarmoqlarda ham o'zlikni anglatuvchi, millatimizni ulug'lovchi loyihalar juda ham kam tayyorlanmoqda. Hamma joyni allaqanday tik-tokshilarining beoxshov chiqishlariyu shou-biznes vakillarining janjallari haqidagi videolar bosib ketgan. Millat va uning tarixi haqida loyihalar tayyorlashni ozarbayjon, turk, qozoq va qirg'iz qardoshlarimizdan o'rgansak bo'lardi. Qozoq qardoshlarimiz vatanparvarlik ufurib turgan To'maris haqida ajoyib film yaratishdi, hind kinoijodkorlari buyuk ajdodimiz va o'z “bosqinchi”siga hurmat bajo keltirib Bobur va boburiylar haqida serial ishladi, xitoy kinoijodkorlari yaratgan “Chingizxon” serialida Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va boshqa ozodlik uchun jon bergan ajdodlarimiz qahramonliklari va vatanparvarligini ochib berishdi. Biz-chi, biz nima qildik? ... Biz ikkinchi xotin, qayona-kelin, qaynota-kelin, xiyonatkor er, xiyonatkor xotin haqidagi badiiy sayoz, ma'nisiz film va seriallarni, ma'rifatimizni o'ldiruvchi, g'arbdan ko'chirilgan shou va ko'rsatuvlarni tomosha qilish bilan ovoramiz. Bunday serial va ko'rsatuvlarni tomosha qilgan jamiyatda na ma'naviyat, na madaniyat, na ma'rifat va na vatanparvarlik qoladi, bu jamiyat albatta manqurtga aylanadi.

**Bekzod MUSURMONOV,
“Samarqand” muxbiri**


Мекка для путешественников

Древний и вечно юный Самарканд продолжает уверенно укреплять свои позиции, как один из самых популярных туристических центров нашей планеты.

Всемирным признанием такой позитивной динамики стало проведение в Самарканде осенью прошлого года 25-й сессии Генеральной ассамблеи Всемирной туристской организации ООН (ЮНВТО), собравший участников более чем из 140 стран. Еще одним знаковым событием 2023 года стало принятие исторического решения о проведении в 2025 году в Самарканде 43-й сессии Генеральной конференции ЮНЕСКО.

Одним из главных барометров роста индекса гостеприимства является растущий поток туристов и время их пребывания в древнем городе. Согласно данным Самаркандского областного управления туризма, в минувшем году регион посетили около 4 миллионов 500 тысяч отечественных и более 2 миллионов иностранных туристов. Такая динамика позволила довести экспорт туристических услуг до 405,9 миллионов долларов США.

Увеличилось и время пребывания гостей в регионе. Путешественники теперь задерживаются в Самаркандской области в сред-



нем 2,7 дня. В 2022 году этот показатель составлял в среднем 1,5 суток.

В настоящее время в регионе функционируют около 600 отелей различного класса, рассчитанных на одновременный прием более 16 тысяч гостей. Только в 2023 году открылись 25 новых гостиниц, 53 гостевых домов и 36 хостелов. Это показывает, что бизнес активно инвестирует в туристическую инфраструктуру региона.

В минувшем году также были зарегистрированы более 80 новых субъектов предпринимательства в сфере туризма. В 2023 году в данном секторе были реализованы около 60 проектов, что позволило создать почти шесть тысяч новых рабочих мест.

Заслуживает внимания и то, что в 2023

году в Самаркандской области прошли более 50 международных конференций, форумов, саммитов, а также более 300 культурных, спортивных, массовых мероприятий.

Серьезные планы у туристической отрасли региона и на 2024 год. Прогнозируется, что в нынешнем году количество иностранных туристов, посетивших Самарканд, достигнет 2,5 миллионов человек, а экспорт туристических услуг достигнет 500 миллионов долларов США. Только объектов размещения в 2024 году в Самаркандской области планируется построить около 80. Расширится также сеть загородных мест отдыха и ресторанов. Возрастет количество выставок в музеях и экспозиций в картинных галереях Самарканда.

Принято также решение о запуске нескольких экспресс-автобусных маршрутов, которые свяжут городские локации с историческими и культурными достопримечательностями региона.

Одним словом, и в 2024 году, один из древнейших городов мира — Самарканд продолжит подтверждать статус туристических ворот Нового Узбекистана.

**Дильшод НАРЗИКУЛОВ,
заместитель начальника управления
туризма Самаркандской области**

• *Туризм*

